

---

Kun.uz tahririyatining “Mashinalar bu yerdan oynalarini yopib o’tadi” - Qo’shtepada aholi zaharli tutun ichida yashamoqda nomli maqolasiga Qo’shtepa tumani hokimligi axborot xizmatining munosabati

Kun.uz saytida 29 oktyabr kuni Zafarbek Solijonov muallifligida “Mashinalar bu yerdan oynalarini yopib o’tadi” - Qo’shtepada aholi zaharli tutun ichida yashamoqda nomli tanqidiy maqola e’lon qilindi.

Maqolada Qo’shtepa tumani “Xumdon” mahallasidan bir guruh fuqarolar hududdagi chiqindixonadan tarqalayotgan tutun aholi sog’ligiga jiddiy havf tug’dirayotganligi va bir necha tashkilotga murojaat qilinganiga qaramay muammo ijobiy hal etilmaganligi bayon etilgan.

Mazkur maqola tuman hokimligi va boshqa mas’ul idoralar vakillari ishtirokida atroflicha o’rganildi.

O’rganishlar bo’yicha shuni ma’lum qilamizki, Farg’ona shahar “Toza hudud” DUK filialiga qarashli bo’lgan, Farg’ona tumani “Satkak” qishlog’i hududida joylashgan Farg’ona Markaziy chiqindixonasi 1979 yilda tashkil etilgan bo’lib, umumiy maydoni 72 gektardan iborat.

Ushbu Markaziy chiqindixonaga Farg’ona shahrida yashovchi aholi tomonidan hosil bo’lgan qattiq maishiy chiqindilar olib kelib joylashtirilib kelinadi.

Chiqindixonaga biriktirilgan Farg’ona shahar “Toza hudud” DUK filialiga qarashli Buldozer texnikalari Markaziy chiqindixonaga tashlangan chiqindilarni o’z vaqtida tartibga keltirilmaganligi, chiqindi uyumlarini ortib borganligi natijasida yong’in kelib chiqib, hududda yashovchi fuqarolarning noroziligiga sabab bo’lgan.

Yuqorida aniqlangan holatlarni bartaraf etish bo’yicha viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi hamda viloyat “Toza hudud” DUK tomonidan tezkorlik bilan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

2019 yil 30 oktyabr kuni amalga oshirilgan ishlar natijasida 550 m<sup>2</sup> tartibsiz tashlangan chiqindi uyumlari tekislanib, ustki qismi tosh shag’al bilan ko’mildi.

***Qo’shtepa tumani hokimligi axborot xizmati***

2019-10-31 10:11:43